



SAMARQAND VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRILISHI

*(2024-yilning yanvar-mart oylari  
uchun dastlabki ma'lumot)*



## Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 8 074,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 106,3 % ni tashkil etdi.

yanvar-mart  
mlrd. so'm



yanvar-mart  
FHI, %






■ mlrd. so'm ■ FHI %

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (5 448,7 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (4 598,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



■ ming so'm    ■ o'sish sur'ati, %





## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-mart oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 7 820,9 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,9 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (39,6 %), Jomboy tumani (10,8 %), Toyloq tumani (6,8 %), hamda Urgut (6,3 %) tumanlari hissasiga tog'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Oqdaryo tumanida (109,6 %), Kattaqo'rg'on tumanida (109,1 %) hamda Paxtachi tumanida (108,5 %) kuzatildi.




## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2024-yil yanvar-mart oylari

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 4,8 martaga, Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilitatsiya qilishda 9,4 % ga hamda Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning 2,2 % ga oʻsishi kuzatildi.

Shuningdek, Ishlab chiqarish 0,2 % ga pasayish kuzatildi.

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50,5 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda*



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida 0,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali 12,6 % (13,5 %), o'rta-quyi texnologiyali 21,4 % (17,3 %) va quyi texnologiyalisi 62,4 % (66,0 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 5,7 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi 11,2 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 24,8 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 37,6 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	23,9	21,3	- 2,6
Paxta tolasi, ming t.	18,0	18,4	0,4
Tozalangan paxta yog'i mingtonna.	4,0	4,8	0,8
Shag'al – ming t.	65,6	87,2	21,6
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), tonna	185,5	152,8	- 32,7
Tamaki – mln. dona	2 229,6	2 404,8	175,2
Piva – ming litr	3 798,0	3 496,0	- 302,0

2024-yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka), 152,8 tonna (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 17,6 % ga) hamda 21,3 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (10,8 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

## Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

(2024-yil yanvar-mart oylarida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-mart oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 720 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 29,3 % ga ko'paygan.



2024-yil

720 dona

2024-yil

129,3 %

2023-yil

557 dona

2023-yil

57,4 %

2022-yil

971 dona

2022-yil

97,6 %

## Avtobuslar ishlab chiqarish

(2024-yil yanvar-mart oylarida)

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-mart oylarida 127 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 36,5 % ga kamaygan.



2024-yil

127 dona

2024-yil

63,5 %

2023-yil

200 dona

2023-yil

155,0 %

2022-yil

129 dona


2022-yil

87,8 %






### Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 137,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 11,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa 97,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 878,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 100,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 5,7 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 116,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 448,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 30,6 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 101,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 28,5 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 96,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 228,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 73,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 64,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 45,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 20,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 103,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 687,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




## Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 80,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 %, fizik hajm indeksi 94,5 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 201,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.





### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 46,7 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,7 % ni, fizik hajm indeksi 134,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 130,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 65,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajm indeksi 147,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 67,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 86,3 % .

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 162,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 140,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 122,7 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 100,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 179,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi esa 66,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni, fizik hajm indeksi 126,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 225,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 89,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,8 %, fizik hajm indeksi 66,6 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 687,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.





## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 136,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	9 528,8	28 854,7	19 325,9
Issiqlik energiyasi, mln. gkal	2 429,4	2 872,2	442,8



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi



## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart	2024-yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	10 848,3	15 871,2	5 022,9
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	23 289,5	29 134,2	5 844,7
Plastmassa chiqindilari, tonna	597,6	681,1	83,5


O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar



Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm



## Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 545 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 121 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,2 %) Samarqand shahriga, 770 tasi (13,9 %) Urgut tumaniga, 599 tasi (10,8 %) Samarqand tumaniga, 398 tasi (7,2 %) Pastdarg'om tumaniga va 302 tasi (5,4 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### Jami yangi tashkil etilgan

**311** ta

2024-yil yanvar-mart

**350** ta

2023-yil yanvar-mart

**517** ta

2022-yil yanvar-mart



### Jami faoliyat yuritayotgan

**5 545** ta


2024-yil yanvar-mart

**6 669** ta

2023-yil yanvar-mart

**8 239** ta


2022-yil yanvar-mart





## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 854,8 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,7 % ni tashkil etdi.

yanvar-mart  
mlrd. soʻm



yanvar-mart  
ulushi, %



■ mlrd. soʻm   ■ oʻsish surʻati, %